



Attracting a suspect to participate in a criminal case: theory and practice

Sitora IBROHIMOVA¹

Tashkent State University of Law

ARTICLE INFO

Article history:

Received August 2024

Received in revised form

15 September 2024

Accepted 25 September 2024

Available online

15 October 2024

Keywords:

crime,
criminal case,
criminal process,
suspect,
accused,
precautionary measures,
human rights,
right to protection,
foreign experience.

ABSTRACT

One of the main goals of the criminal process is to uphold the rule of law and combat crime, while also safeguarding the rights and freedoms of suspects. Any person suspected of a crime is presumed innocent until proven guilty by law. This article examines the concept of a suspect, including its basis, conditions, status, rights, and obligations in the criminal process. It also provides a comparative analysis of legal standards from foreign countries and national legislation.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss10/S-pp217-223>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Jinoyat ishida gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish: nazariya va amaliyot

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

jinoyat,
jinoyat ishi,
jinoyat protsessi,
gumon qilinuvchi,
ayblanuvchi,
ehtiyot choralari,
inson huquqlari,
himoya huquqi,
xorijiy tajriba.

Jinoyat protsessining asosiy maqsadlaridan biri qonun ustuvorligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashishdir. Biroq, bu jarayonda gumon qilinuvchilarning huquq va erkinliklarini himoya qilish ham muhim ahamiyatga ega. Har qanday shaxs, jinoyatga aloqadorligi gumon qilinsa ham, u qonun oldida aybdor deb topilguniga qadar aybsiz deb hisoblanadi. Mazkur maqolada gumon qilinuvchi tushunchasi, asoslari, shartlari, gumon qilinuvchining jinoyat-protsessidagi maqomi, huquq va majburiyatlari haqida so'z yuritilib, xorijiy davlatlar hamda milliy qonunchilik normalari asosida solishtirilib huquqiy tahlil qilinadi.

¹ Student, Faculty of Criminal Justice, Tashkent State University of Law. E-mail: ibrokhimovasitoraxon@gmail.com

Привлечение подозреваемого к участию в уголовном деле: теория и практика

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

преступление,
уголовное дело,
уголовный процесс,
подозреваемый,
обвиняемый,
меры пресечения,
права человека,
право на защиту,
зарубежный опыт.

Одна из главных целей уголовного процесса — обеспечение законности и противодействие преступности. При этом не менее важно защищать права и свободы подозреваемых. Любое лицо, подозреваемое в совершении преступления, считается невиновным, пока его вина не будет доказана в установленном законом порядке. В данной статье рассматриваются понятие подозреваемого, основания и условия его статуса, права и обязанности в уголовном процессе, а также проводится сравнительный анализ правовых норм зарубежных стран и национального законодательства.

KIRISH

Rivojlangan davrda inson huquqlarini ta'minlash, himoya qilish har bir siyosatining asosiy yo'nalishi hisoblanib, jinoyat-huquqiy tizimda gumon qilinuvchini jinoyat ishi bo'yicha tergovga jalb qilish masalasi xalqaro miqyosda ham, milliy huquqiy tizimda ham muhim o'rin tutadi. O'zbekiston va xorijiy mamlakatlarining qonunchiligida shaxsni jinoyat ishida gumon qilinuvchi sifatida jalb qilish jarayonida ayrim umumiy tamoyillar kuzatilsa-da, amaliyot va qonunchilikda sezilarli farqlar mavjud. Xususan, yetarli asoslar bo'lmasdan turib shaxsni tergovga jalb qilish, aybiga iqrorligiga erishish yoki boshqa g'arazli maqsadlarda huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari tomonidan qonunga xilof ravishda protsessual majburlov choralarini qo'llash kabi holatlar tergov jarayonidagi xavotirli va og'riqli muammolar hisoblanadi. "National Registry of Exonerations" saytining xabar berishicha, 2022-yilda 250 nafar, 2023-yilning o'zida esa 153 nafar nohaq ayblangan shaxslar oqlanganini qayd etgan bo'lib, mazkur shaxslarning 38 foizi qotillik jinoyatini sodir etishda gumon qilinib ishga jalb qilingan. Bundan tashqari, nohaq hukmlarda irqiy tafovut keskinligicha qolmoqda. Jumladan, birgina Amerika aholisining atigi 13 foizini tashkil etgan qora tanlilar turli insonparvar tashkilotlar tomonidan oqlangan shaxslarning qariyb 60 foizini tashkil etib, oq tanli fuqarolarga qaraganda qotillikda nohaq sudlanganlik ehtimoli 7 marta ko'proq. Mazkur ko'rsatkich ham bugungi kunda shaxsni jinoyat ishiga jalb qilish, uni jinoyat sodir etganlikda gumon qilish asoslarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

ASOSIY QISM

Jahonda jinoyatlarni tergov qilishda qiynoqqa asoslangan so'roq qilish usullaridan voz kechish, Miranda qoidasiga qat'iy rioya qilgan holda gumon qilinuvchilarning jinoyat protsessidagi huquqlarini to'la-to'kis ta'minlash, aybsizlik prezumpsiyadan kelib chiqib, sudning ayblovi hukmi qonuniy kuchga kirgunga qadar shaxs aybdor hisoblanmasligi, shu asosda gumon qilinuvchilarini so'roq qilishda ularga, jinoyatchi sifatida emas, avvalo, inson sifatida yondashib ish ko'rishga oid so'roq qilishning yangi taktikalari va uslubiylatlari ustida tadqiqotlar olib borilmoqda.

Shuningdek, jahon davlatlari qatoridan munosib o'rin egallagan Yangi O'zbekiston olib borayotgan faoliyatning ham asosiy yo'nalishi inson huquq va erkinliklarini

ta'minlash, manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish vazifasi belgilanib, "O'zbekiston – 2030" Strategiyasining 84-maqsadida, Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligini ta'minlash, inson huquq va erkinliklarining ishonchli himoya qilinishini ta'minlashni sud-huquq islohotlarining bosh mezoniga aylantirish, 86-maqsadida esa Sud hokimiyatining mustaqilligini kuchaytirish va uning faoliyatida ochiqlikni ta'minlash orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish ko'rsatilgan. Ushbu maqsadni tashkil etuvchi vazifalar qatorida jinoyat, jinoyat-protsessual va jinoyat ijroiya qonunchiligini takomillashtirish siyosatini izchil davom ettirish, jinoiy jazolar va ularni ijro etish tizimiga insonparvarlik tamoyilini keng joriy etish, shuningdek qiynoqlarning oldini olish bo'yicha preventiv mexanizmlarni takomillashtirish va ushbu yo'nalishda maxsus qonun qabul qilish, tezkorqidiruv va tergov faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish, fuqarolarning qadr-qimmati va erkinligini samarali himoya qilishning ta'sirchan mexanizmlarini joriy etish kabilar o'rin olgan.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi gumon qilinuvchini jinoyat ishi bo'yicha tergovga jalb qilishning huquqiy asoslarini aniq belgilaydi. Mazkur kodeksning 47-moddasida belgilanishicha, gumon qilinuvchi jinoyat sodir etgani to'g'risida ma'lumotlar bor bo'lsa-da, bu ma'lumotlar uni ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish uchun yetarli bo'lmagan shaxsdir. Shaxsni jinoyat ishida gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish surishtiruvchi, tergovchi va prokurorda ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilishida muayyan shaxsning ishtiroki mavjudligi to'g'risidagi gumonning vujudga kelganligini bildiradi. Gumon qilinuvchiga nisbatan surishtiruv yoki tergov ishlari boshlangan paytdan u yuridik maqomga ega bo'ladi va unga nisbatan qonun bilan belgilangan huquq va majburiyatlar paydo bo'ladi.

Jinoyat ishining barcha bosqichlarida gumon qilinuvchi faol ishtirok etadi va ish yuritish bosqichiga ko'ra bir maqomdan ikkinchi maqomga o'tuvchi yagona protsess ishtirokchisi hisoblanadi. Shaxni jinoyat ishida gumon qilinuvchi sifatida ishtirok etishga jalb qilish asoslari Jinoyat protsessual kodeksining 359-moddasida keltirilgan bo'lib, shaxs mazkur Kodeksning 221-moddasida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra, jinoyat sodir etishda gumon qilinib ushlangan bo'lsa yoxud ishda uni jinoyat etishda gumon qilishga asos beruvchi ma'lumotlarlar mavjud bo'lsa, u jinoyat ishida gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilinadi. 221-moddada shaxsni ushlab turish va ayni vaqtda gumon qilinuvchi tariqasida ishga jalb qilish asoslari keltirilgan, jumladan jinoyatni sodir etishda gumon qilingan shaxs quyidagi asoslar mavjud bo'lganda ushlab turilishi mumkin:

- 1) shaxs jinoyat ustida yoki bevosita uni sodir etganidan keyin qo'lga tushsa;
- 2) jinoyat shohidlari, shu jumladan jabrlanuvchilar uni jinoyat sodir etgan shaxs tariqasida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatsalar;
- 3) uning o'zida yoki kiyimida, yonida yoki uyida sodir etilgan jinoyatning yaqqol izlari topilsa;
- 4) shaxsni jinoyat sodir etishda gumon qilish uchun asos bo'ladigan ma'lumotlar mavjud bo'lib, u qochmoqchi bo'lsa yoki doimiy yashaydigan joyi yo'q yoxud shaxsi aniqlanmagan bo'lsa.

Keltirilgan asoslardan tashqari, 359-moddada nazarda tutilgan "ishda shaxsni jinoyat sodir etishda gumon qilishga asos beruvchi ma'lumotlar" aynan qanday ma'lumotlar ekanligi belgilanmagan. Mazkur holat yuzasidan yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori K.Mavlanovning quyidagi fikrlarini o'rinli. JPKning 82-moddasida shaxsni

ayblash uchun asoslar aniq ko'rsatib qo'yilgan. Tergov jarayonida jinoyatga daxli bo'lgan yoki jinoyat belgilarini o'zida saqlagan shaxslar, narsa-buyumlar aniqlanib, surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning gumoni ostiga tushadi. Bu shaxslarning bevosita jinoyatga daxldorligi esa biror bir tergov harakati yoki tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish yo'li bilan aniqlanadi. Shuningdek, tadqiqotchining fikricha, ushbu tushuncha keng ma'noda qo'llanilmasligi, ya'ni qaror qabul qilish mavhum gumonlar asosida yuz bermasligi kerak. Shu maqsadda muallif Jinoyat-protsessual kodeksiga shaxsni jinoyat ishiga gumon qiluvchi tariqasida jalb qilishda yagona yondashuvni ta'minlovchi zamonaviy isbotlash standartini alohida modda sifatida kiritishni taklif etgan. Unda gumon qilish uchun jinoyatning sodir etilishiga shaxsning daxldorligi haqida asosli gumon bo'lishi kerak, degan xulosaga kelingan. Keltirilgan fikrdan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, shaxsning maqomi gumon qiluvchidan ayblanuvchiga o'zgarishi aynan aybning isbotlanganlik darajasiga bog'liq bo'lishi kerak.

Yuqorida qayd etganimizdek, milliy qonunimizda gumon qiluvchi jinoyat protsessida yuridik maqomga ega bo'lishini uchun surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror tomonidan chiqarilgan qaror belgilaydi. Ammo O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2003-yil 19-dekabrda 17-sonli "Gumon qiluvchi va ayblanuvchini himoya huquqi bilan ta'minlashga oid qonunlarni qo'llash bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, shaxs JPK 221-moddasida ko'rsatilgan asoslarga ko'ra ushlangan hollarda, garchi qonunda bu haqda tegishli bayonnoma shaxs ichki ishlar organi yoki boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organga keltirilgandan so'ng rasmiylashtirilishi belgilangan bo'lsa-da, uning harakatlanish erkinligiga bo'lgan huquqi amalda cheklangan paytdan boshlab gumon qiluvchi deb topiladi. Aynan shu paytdan boshlab ushlab turilgan shaxs gumon qiluvchiga berilgan barcha huquqlardan foydalanadi. Shu tufayli, bunday hollarda u guvoh sifatida so'roq qilinishi, tegishli huquq va majburiyatlari tushuntirilmasdan turib, unga nisbatan tergov harakatlari olib borilishi mumkin emas. O'zbekiston Respublikasi IIV huzuridagi Tergov departamenti taqdim etgan ma'lumotlarga ko'ra, 2016-yilda Respublikamizdagi Vaqtincha saqlash hibsonalarida jami 4673 nafar, 2017-yilda 5689, 2018-yilda 4445, 2019-yil 4646, 2020-yil 6339 nafar shaxs jinoyat sodir etganlikda gumon qilinib, protsessual tartibda ushlab turilgan. Bundan xulosa qilish mumkinki, shaxs unga nisbatan jinoyat ishiga jalb qilish to'g'risidagi qaror chiqishidan oldin ham gumon qiluvchi bo'lishi mumkin va uning huquqiy maqomi, huquqlari va majburiyatlarini qonunchiligimizda aniq belgilash zarur. Shuning uchun ham tadqiqotchi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 47-moddasini yangi tahrirda bayon etishni, unda nafaqat jinoyat ishida gumon qiluvchi tariqasida ishtirok etish uchun jalb qilish to'g'risidagi qaror chiqarilgan shaxs, balki jinoyat sodir etganlikda gumon qilinib protsessual qonunchilikda o'rnatilgan tartibda ushlangan shaxs ham gumon qiluvchi maqomiga ega bo'lishi kerakligi to'g'risida xulosaga kelgan.

Jinoyat ishida gumon qiluvchi tariqasida jalb qilingan shaxsning huquqlari to'g'risida so'z yuritar ekanmiz, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-29-moddalarida qayd etilgan insonning sha'ni va qadr-qimmatini daxlsiz ekanligi, hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emasligi, shaxsni ushlab chog'ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shart ekanligi, aybdorlikka oid barcha shubhalar, agar ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo'lsa, gumon qiluvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining

yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi kerakligi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlashi shart emasligi va istalgan vaqtda sukut saqlash huquqidan foydalanishi mumkinligi, qonunni buzgan holda olingan dalillardan odil sudlovni amalga oshirish chog'ida foydalanishga yo'l qo'yilmasligini ko'rsatishimiz lozim. Shuningdek, JPK ning 48-moddasida gumon qilinuvchining huquq va majburiyatlari batafsil bayon etilgan bo'lib, gumon qilinuvchi o'zining nimada gumon qilinayotganligini bilish, ushlab turilganligi va turgan joyi to'g'risida advokatga yoki yaqin qarindoshiga telefon orqali qo'ng'iroq qilish yoxud xabar berish, u amalda ushlangan yoki jinoyat joyida ushlash bilan bog'liq tezkor-qidiruv tadbiri amalda yakunlangan yoxud uning gumon qilinuvchi deb e'tirof etilganligi to'g'risidagi qaror unga ma'lum qilingan paytdan boshlab himoyachiga ega bo'lish hamda uchrashuvlarning soni va davom etish vaqti cheklanmagan holda u bilan xoli uchrashish, ushbu holatda JPK 230-moddasining ikkinchi qismi mustasno. Shu bilan birga gumonlanuvchi ushlanganidan keyin yigirma to'rt soatdan kechiktirmay so'roq qilinishini talab qilish, o'ziga nisbatan qo'yilgan gumon xususida hamda ishning boshqa har qanday holatlari to'g'risida ko'rsatuvlar berish yoxud ko'rsatuvlar berishdan bosh tortish va ko'rsatuvlaridan jinoyat ishiga doir dalillar sifatida uning o'ziga qarshi foydalanilishi mumkinligi haqida xabardor bo'lish, o'z ona tilidan hamda tarjimon xizmatidan foydalanish, o'zining himoyalani shu huquqini shaxsan o'zi amalga oshirish, iltimosnoma berish va rad qilish, dalillar taqdim etish, surishtiruvchi yoki tergovchining ruxsati bilan tergov harakatlarida ishtirok etish, yarashuv to'g'risidagi, amnistiya aktini qo'llash haqidagi ishlar bo'yicha sud majlislarida ishtirok etish, surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning va sudning harakatlari hamda qarorlari ustidan shikoyatlar berish huquqiga ega.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sud Plenumining "Gumon qilinuvchi va ayblanuvchini himoya huquqi bilan ta'minlashga oid qonunlarni qo'llash bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida" gi Qarorida ham gumonlanuvchining himoya huquqiga yuzaga kelgan gumon, qo'yilgan aybni rad etish yoki javobgarlik va jazoni yumshatish uchun unga qonun bilan berilgan protsessual imkoniyatlar (vosita va usullar) yig'indisidir deya ta'rif berib, himoya huquqi jinoyat-sudlov ishlarini yuritishning barcha bosqichida ta'minlanishini belgilab qo'ygan.

Xorijiy davlatlar xususan, 2016-yil 9-mart kuni Yevropa Parlamenti va Kengashi "Jinoyat ishi bo'yicha aybsizlik prezumpsiyasining ba'zi jihatlarini va sud huzurida bo'lish huquqini kuchaytirish to'g'risidagi Direktiva (2016/343)" qabul qildi. Unga ko'ra hali gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining aybdorlik masalasi hal etilmasdan turib, davlat organlari tomonidan ommaga shaxsning aybdorligiga oid biror ma'lumot beriladigan bo'lsa, bu prinsipning buzilishi sanaladi. Buyuk Britaniyada gumonlanuvchi shaxsning huquqlari "Police and Criminal Evidence Act 1984 (PACE)" orqali tartibga solingan bo'lib, gumon qilinuvchi so'roq jarayonidan oldin advokatga murojaat qilish huquqiga ega. Advokatsiz olingan har qanday guvohlik ishonchsiz deb topilishi mumkin. Politsiya so'roq jarayonida gumon qilinuvchiga tazyiq o'tkazilishining oldini olish uchun barcha so'roqlar audio yoki video tarzda yozib boriladi. Gumon qilinuvchi va uning advokati ish bo'yicha barcha dalillar bilan tanishish imkoniga ega bo'lib, sud jarayonida ularni baholash va ularga qarshi dalillarni keltirish huquqiga ega. Fransiya, Germaniya va boshqa Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarda esa gumon qilinuvchining huquqlari Yevropa Inson huquqlari konvensiyasi (ECHR) va Yevropa Ittifoqining qonunchilik hujjatlari orqali himoya qilinadi. ECHRning 6-moddasida jinoyat ishlari bo'yicha adolatli sudlov olish huquqlari belgilangan.

Aybsizlik prezumpsiyasi, advokat yordamidan foydalanish, so'roq davomida sukut saqlash, himoya uchun barcha vositalardan foydalanish shular jumlasidan. Gumon qilinuvchilarning huquqlari xalqaro miqyosda BMT tomonidan qabul qilingan hujjatlar (BMTning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948), BMTning "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt" (1966)) va xalqaro shartnomalar orqali ham himoya qilinadi.

Nazariya va qonunlarda belgilangan qoidalarga amaliyotda to'liq rioya qilinmasligi inson huquqlari buzilishiga sabab bo'lmoqda hamda mazkur masala hamon dolzarbligicha qolmoqda. Shu sababli milliy qonunchilikda, davlat dasturlarida qonun ustuvorligini ta'minlash, shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jumladan, gumon qilinuvchini so'roq qilishning samarali tashkil etilishiga, haqqoniy ko'rsatuvlar olinishiga, so'roq jarayonida gumon qilinuvchining huquqlari to'laonli ta'minlanishiga xizmat qiluvchi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 18-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va Jinoyat protsessual kodekslariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 675-sonli Qonuni kuchga kirdi. "Surishtiruv instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sudtergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklari kafolatlarini yanada kuchaytirish choradadirlar to'g'risida"gi PF-6041-son va "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonlari, Oliy sud Plenumining "Dalillar maqbulligiga oid jinoyat protsessual qonuni normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi va "Gumon qilinuvchi va ayblanuvchini himoya huquqi bilan ta'minlashga oid qonunlarni qo'llash bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorlari hamda boshqa qonun hujjatlarining ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etilishi quvonarli holat.

Shunga qaramay, jinoyat protsessining har bir bosqichida shaxsning huquq va erkinliklarini to'la-to'kis ta'minlash, sodir etilishi mumkin bo'lgan tajovuzlarni oldini olish maqsadida ikki xil g'oyani ilgari suramiz.

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksida mavjud bo'lgan normalarni yanada takomillashtirish orqali gumon qilinuvchilarning huquqlari amaliyotda samarali himoya qilinishi mumkin. Jumladan, JPK da gumonlanuvchi atamasiga berilgan ta'rif qayta ko'rib chiqilib, gumon qilinuvchi unga nisbatan belgilangan tartibda va asoslarda jinoyat ishi qo'zg'atilgan, yoki tegishli tartibda ushlangan, yoxud jinoyat sodir etganlikda gumon qilinganligi to'g'risida xabardor qilingan, ammo unga nisbatan ayblov e'lon qilinmagan shaxsdir deya tahrir etilishi, ishda himoyachi ishtirokini ta'minlash va advokatlarning roli va mavqeyini qonunan mustahkamlanishi, har qanday so'roq jarayonini audio, video-yozuvlar orqali qayd etilishi va mazkur jarayon maxsus tuzilgan komissiyalar orqali nazorat qilinishi, gumon qilinuvchining sudgacha himoyasini kuchaytirish, jumladan tergov jarayonlarini o'z vaqtida bo'lishini ta'minlash hamda qamoq va uy qamog'i kabi ehtiyot choralari o'rniga alternativ (garov, kafillik) ehtiyot choralari qo'llashni kengaytirish, shaxsning qadr-qimmati, sha'nini himoya qilish maqsadida jamoatchilikka oshkoralik va xabardorlikni oshirish choralari ko'rish bo'yicha qonun hujjatlarining ishlab chiqilishi shular jumlasidan.

Ikkinchidan, huquq-tartibot organlari xodimlarining inson huquqlari borasidagi bilimlarini oshirish va ularning malakasini doimiy ravishda takomillashtirish lozim. Bu so'roq jarayonlarida tazyiq va qonunbuzarliklarning oldini olishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, gumon qilinuvchilarning huquqlarini mustahkam himoya qilish jinoyat protsessual tizimning adolatligi va samaradorligi uchun muhimdir. Yuqorida qayd etilgan amaliyotdagi muammolarni hal qilish, qonunchilikni takomillashtirish va inson huquqlarini ta'minlashga qaratilgan islohotlar gumon qilinuvchi shaxsning ahvolini yanada yaxshilashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://www.law.umich.edu/special/exoneration/Documents/2023%20Annual%20Report.pdf>
2. <https://innocenceproject.org/race-and-wrongful-conviction>
3. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
4. <http://tadqiqotlar.uz/index.php/02/article/view/1702>
5. Мавланов К. “Жиноят процессида гумон қилинувчининг ҳуқуқ ва эркинликларини ишончли ҳимоя қилиш кафолатлари” мавзусида PhD диссертация иши автореферати, 2022.
6. <https://lex.uz/uz/docs/-1453755>
7. <https://www.legislation.gov.uk/id/ukpga/1984/60>
8. <https://www.echr.coe.int/>